

**TURK XOQONLIGI HARBIY YURISHLARI VA ISHLATILGAN
QUROLLARI**

Umirzoqov Nurbek Otabek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va pedagogika fakultituti

Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[Tel:+998944787666](tel:+998944787666)

[@mail:umirzoqovnurbek6gmail.com](mailto:umirzoqovnurbek6gmail.com)

Jummayev Azamat Dosqobil o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va pedagogika fakultituti

Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[@Azamatjumayev31@gmail.com](mailto:Azamatjumayev31@gmail.com)

[Tel:+998930783700](tel:+998930783700)

***Annotatsiya:** Maqolada turkiy xalqlar, Turk xoqonligining tashkil topishi, xoqonlikning harbiy san'ati haqida gap boradi. Xoqonlikning qudratining oshishida harbiy san'atning o'rni haqida to'xtalgan. Shu bilan birga xoqonlikning harbiy qurol-yarog'lari, harbiy unvon va mansablar, qo'shin tuzilishi, jang taktikalari haqida so'z yuritilgan.*

***Tayanch so'zlar:** Turk, Ashina xonadoni, o'n o'q, Shod, Asan va Tuu, Bumin, Istami, Xoqon, Muqon, Fuli, Otliq suvoriylar, Yabg'u, Tegin, Qo'rg'onlar.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'lkamiz tarixini o'rganish, tarixiy voqealarni tadqiq qilishga bo'lgan harakat ortdi. Vatanimiz tarixida mavjud bo'lgan davlatlar tarixini yoritish muhim ahamiyat kasb etdi. Bilamizki, temir davridan beri davlatlar bir-birining o'rniga paydo bo'lmoqda, bulardan yana biri kichik qabiladan ulkan davlatga aylangan Turk xoqonligini ham aytish mumkin. Asli bu xalqning paydo bo'lishi, hozirgacha ramzi bo'layotgan bo'ridan, Nuh

paygʻambargacha borib tarqaladi, Turk soʻzining lugʻaviy maʼnosi “kuchli”, “baquvvat” degan maʼno beradi. Taʼkidlash joizki, turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542-yilga toʻgʻri keladi. Dastavval etnik xususiyatga ega boʻlmay ijtimoiy maʼnoga ega boʻlgan. Davlatning paydo boʻlishi esa, tarixiy manbalarda Turk xoqonligining paydo boʻlishi 551-552-yillarga toʻgʻri keladi¹. Dastavval, turklarning Ashin urugʻdan boʻlgan Asan va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos solishadi. VI asr 50-yillarining oxirlarida Istami xoqonga eftaliylarga qarshi harbiy harakatlar olib bordi. Turklar Oʻrta Osiyo yerlarini bosib olgach, Buyuk Ipak Yoʻli katta qismining nazoratini oʻz qoʻllariga olishadi. Aynan shu savdo yoʻllari oʻrtasida Eron Sosoniylar bilan urush boshlandi. Ular oʻrtasida 2 marotaba jang boʻldi oxirida sulh bilan yakunlandi. Arablar Oʻrta Osiyoni bosib olgunlariga qadar turklarning Oʻrta Osiyodagi mulklari bilan Eron oʻrtasidagi chegaralar oʻzgarmadi. Turk xoqonlari oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar 20 yildan ziyodroq, davom etib 603-yiida davlatning 2 ta: Gʻarbiy va Sharqiy qismlariga bodinib ketishi bilan yakunlandi. Turk xoqonligi Tan imperiyasi tomonidan bosib olindi faqatgina VII asning oxirlariga kelib xoqonlik oʻz mustaqilligini tiklashga muvaffaq boʻldi. Turk xoqonligi qisqa muddatda yirik maydonni egallagan davlat hisoblanadi. Bu davrga oid yozma manbalardagi maʼlumotlar va qadimgi turk jangchilari bu oʻq tasvirlangan qoyatosh rasmlardan maʼlum boʻlishicha, qoʻshin ikki turda qurollanganini aniqlash mumkin:

- 1) ogʻir qurollangan sovutli (zirhli) otliklar;
- 2) yengil qurollangan jangchilardan iborat boʻlishgan.

Qadimdanoq turklarning qoʻshini yengil qurollangan otlik kamondozlardan iborat boʻlgan, Bunday qoʻshin tarqoq saf taktikasini qoʻllagan. Aniqrogʻi, dushmanga maʼlum masofada turib birdaniga oʻq yogʻdirishgan Keyinchalik ham turk qoʻshinlarining asosini oʻq va yoy bilan qurollangan yengil otliklar tashkil etgan boʻlib, ular tarqoq saf tortgan holda harakat qilishgan. Yozma manbalarda turklarning otda turib kamondan mohirlik bilan oʻq uzishlari alohida taʼkidlagan. Arab, fors, yunon, slavyan va boshqa tillardagi manbalarda xam turklarning

¹. Oʻzbekiston Tarixi 1 kitob - T.: donishmand ziyosi, 2021.

jangovar ko'shini odatda otliqlardan iborat bo'lganligi qayd etilgan. Bu ma'lumot xoqonlikdagi har bir harbiy kishining jangovar ruhda tayyorlanganini ko'rsatadi. Ularning orasida shaxsiy qo'riqchilar - Ashina urug'idan bo'lgan xoqonlarning zirhli otlik gvardiyasi alohida ajratilgan edi. Mazkur gvardiyalar qo'shinning asosini tashkil etib, armiyaning birmuncha jangovar va zarbdor qismi bo'lgan. Xoqonning shaxsiy qo'riqchilari (xos soqchilari) xitoy yilnomalarida "fuli", ya'ni bo'ri deb atalgan. Turklarning bayroqlari dastasiga ham oltin bo'rining boshi kiydirilgan. Bu bayroq xoqonning o'rda-qarorgohi tepasida hilpirab turgan. Xitoy muarrixlari buning sababini turklar o'zlarining kelib chiqishini unutmaganliklari ramzidir, deb izohlaganlar. Qo'shin tarkibida Sug'd chokarlarining ham bo'lishi qal'alarni qamal qilish va ularni ishg'ol qilishda qo'l kelgan. G'arbiy xoqonlik qo'shinlari asosan otliq jangchilardan tashkil topgan bo'lsa-da, janglarda tuyalardan ham foydalanilgan. Xitoy yilnomalaridan biri "Chjou-shu" da turkiy kabilalar jangchilariniig jang qurollari shunday ta'riflanadi: "ularning qurollari shoxsimon yoy va xushtaksimon ovoz chiqaruvchi o'q, sovut, nayza, kilich va dudama qilich (uzun, og'ir qilich) lardan iborat... otda turib kamondan mohirlik bilan o'q uzadilar"². Tan imperatori Gaoizu esa "turklarning kuch-qudrati otda turib kamondan o'q uzishlaridadir" deb ta'kidlaydi. Turli xududlardan topilgan arxeologik materiallar xoqonlik qo'shinining mustahkam po'lat qurollarga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Xususan, Oltoy o'lkasidagi Balik Sook degan joydagi mozor-qo'rgon qazilganda uning qurol-aslahalari va jang kiyimlari bilan ko'milgan qadimgi turk jangchisiga tegishli ekanligi aniqlandi. Ahamiyatlisi shundaki, ushbu topilmalar tiklanganda ular orasida qilich, dubulg'a (shlem), xanjar, o'q-yoy, sovut kabi jangovar buyumlar borligi, ularning mustahkam temir va kumushdan yasalganligi xamda otliqqa unchalik qiyinchilik tug'dirmaydigan darajada yengil bo'lganligi ma'lum bo'ldi³. Xoqonlikning boshqaruv tuzumida qariyb 40 ga yaqin

² https://ru.wikipedia.org/w/index.php.title=Тюркский_каганат&oldid

³ . Boboyarov G'. G'arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi - T.: YANGI NASHR

unvon va ellikdan ortik epitelar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) rasmiy: a) ma'muriy; b) harbiy;
- 2) ijtimoiy: a) diniy; b) ramziy-faxriy.

Turk xoqonligida boshqaruv tizimida xoqondan keyin birinchi o'rinda yabg'u turgan. Dastlabki davrlarda "yabg'u" xoqonning vorisi hisoblanib, odatda xoqonlarning ukalari shu unvonga ega bo'lar edilar. Shuning uchun ham yabg'u xitoy yilnomalarida xoqondan keyingi birinchi shaxs sifatida ko'rsatiladi". Undan keyin esa tegin, ya'ni xoqonning o'g'illari - shahzodalarga beriladigan unvon bo'lgan. Odatda teginlarga boshqarish uchun ma'lum bir hudud berilib, o'zining qo'shiniga ham ega bo'lgan. Hokimiyat akadan ukaga emas, otadan o'g'ilga o'tadigan bo'lgach, teginlar taxt vorisi hisoblanib, yabg'ularning mavqeiga nisbatan ularning mavqei yuqoriroq bo'lishiga olib keladi. Teginlardan so'ng eltabarlar turgan Yabg'u, shod, tegin, eltabar, tudun, tutuk, cho'r, tarxon, erkin, inanchu, buyruk kabi o'nlab unvonlar va ularning oldida keluvchi apa, inal, kul, tun va h.k. ko'plab epitelar rasmiy xarakterda bo'lib, ulardan aksariyati ma'muriy bo'lsa, bir qismi harbiy edi. Ayniqsa, ular orasida tutuk, cho'r, tarxon, erkin kabi unvonlar ko'proq harbiy xarakterdagi unvonlar bo'lishi barobarida qaram qabilalarni boshqarishga vohalarga hukmdorlik qilishga yuborilgan ma'murlarning unvoni sifatida xam uchraydi. Xoqonlikda mavjud unvonlar tizimida harbiy unvonlar ham o'ziga xos o'rin egallagan. Jumladan, bitiktoshlarda suboshi, chabish, mingboshi, beshyuzboshi, yuzboshi, o'nboshi kabi unvonlar uchraydi. Shuningdek, xitoy yilnomalarida xoqonlik amaldorlarining unvoni sifatida chabishi-szyabi (chabish) bir necha bor qayd etiladi "Suboshi lug'aviy jihatdan qadimgi turkcha su "qo'shin" va bash "bosh, rahbar", ya'ni "qo'shin boshlig'i, lashkarboshi" ma'nosida edi. Chabish (chovush) esa "qo'shinda vazifador shaxs, lashkar boshliklaridan biri" sifatida bo'lib, Maxmud Qoshg'ariy uni "jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askarni zulm qilishdan saqlovchi odam" shaklida ta'riflaydi. Mahoratli jangchilarning jangovarlik qobiliyati o'z davri uchun yetarlicha darajada yuqori bo'lgan. Ular deyarli tinimsiz jangu jadallar olib borar,

butun atrofida dushmanlar o'rab olgan bo'lishlariga qaramay, turli qabilalarning qarshiliklarini qurol kuchi bilan bartaraf etib, Uzoq Sharq va O'rta Osiyogacha bo'lgan uzoq masofali yurishlarni amalga oshirar edilar. Diqqatga sazovor jihati shuki, xoqonlik qo'shinlari dushmanni oxirigacha ta'qib qilib borib, uni butunlay yakson qilmaganlaricha tinchishmas edi⁴. Vizantiyalik harbiy mutaxassis Mavrikiy (VII asr birinchi yarmi) o'zining "Strategikon" nomli asarida turklarning taktik usullarini shunday tasvirlaydi: «Endi turklar va avarlar ham jangovar tartibda joylashishadi... Ular jangovar qo'shinni rimliklar (vizantiyaliklar nazarda tutilmoqda) va forslarga o'xshab bir chiziq bo'ylab joylashtirmaydi" deydi⁵. Mintaqada harbiy mudofaa inshootlarini ko'rish an'anasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, chegara chiziqlarida mustahkamlangan manzilgohlar va yashirinish uchun mo'ljallangan qal'alar, qasrlar va hukmdorlarning qarorgohlari barpo etilgani shundan dalolat beradi. Chorvadorlar jamiyatida ko'chmanchi davlatlarning vujudga kelishi bilan harbiy inshootlarning ahamiyati yanada ortdi. Chorvadorlar imperiyalarning suv yoki quruqlik yo'llari bo'ylab uncha katta bo'lmagan istehkomlar qad ko'taradi. Biroq bunday istehkomlarning hech birida aholi doimiy yashagan emas, ular faqat jang vaqtlarida zaxira ombori va mudofaa joylari vazifasini o'tagan". Gaochandan 125 km shimolda joylashgan mazkur garnizon o'z joylashuviga ko'ra, tashqi xavflardan himoyalash uchun strategik jihatdan qulay bo'lgan. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, xoqonlik o'z davrida harbiy jihatdan ilg'or bo'lgan. O'nlik tizimga asoslangan muntazam qo'shin, ya'ni asosan har biri 10 ming nafar jangchi bilan ta'minlovchi "o'n o'q" tuzilmasi doimiy ravishda hozir bo'lgan 100 minglik qo'shin mavjud bo'lgan, xoqonlik uning ko'p sonli, intizomli va tezkor otliq qo'shinga ega bo'lganligi, o'z davrining qudratli davlatlaridan biriga aylanishiga aylanishiga imkon bergan.

Shu sababli, Turk xoqonligi qudratli Sosoniylar Eroni, Vizantiya va Xitoy

⁴ O'zbekistonda harbiy ish tarixidan -T.: SHARQ, 2012

⁵ Usmon T. Turkiy xalqlar mafkurasi
www.tadqiqotlar.uz

ustidan ma'lum muddat ustunlik qilishga va doimiy ravishda o'z hududini kengaytirib borishga muvaffaq bo'lgan. Xulosa qilib aytganda garchi Turk xoqonligining butun siyosiy tarixi harbiy yurishlar va qabilalararo urushlar bilan to'la bo'lishiga qaramay, u Jung'oriyadan to Qora dengizgacha bo'lgan ulkan hududda turkiy qabilalarning o'zaro uyushishiga zamin yaratdi va qator turkiy tili xalqlar etnomadaniy muhitining shakllanishini ta'minlaydi. Xoqonlikning kuchli harbiy tashkiloti esa Xitoy va Eronning tajovuzkorona niyatlariga to'sqinlik Qila oldi, VIII asrdagi arab xalifaligi bosqiniga ham qattiq qarshilik ko'rsata oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Tarixi 1 kitob - T.: DONISHMAND ZIYOSI, 2021
2. https://ru.wikipedia.org/w/index.php.title=Тюркский_каганат&oldid=134221483
3. Boboyarov G'. G'arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi - T.: YANGI NASHR, 2018
4. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan -T.: SHARQ, 2012
5. Usmon T. Turkiy xalqlar mafkurasi - T.: Cho'lpon, 1995
6. Nasimxon R. Turk xoqonligi - T.: A.Qodiriy, 1993